

O‘ZBEK TILIDA KISHILIK OLMOSHLARINING SHAXSIY-MA’NOVIY XUSUSIYATLARI

Tursunova Nodira Abdunosim qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti

2- bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi kishilik olmoshlarining semantik va grammatik xususiyatlari birinchi, ikkinchi va uchinchi shaxs doirasida ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kishilik olmoshlarining shaxs va son kategoriyalarini ifodalashdagi o‘rni hamda ularning nutq jarayonidagi kommunikativ vazifalari yoritiladi. Birinchi shaxs kishilik olmoshlarining nutq subyekti bilan bog‘liq ma‘nolari, ikkinchi shaxs kishilik olmoshlarining murojaat va muloqotdagi o‘rni, uchinchi shaxs kishilik olmoshlarining referensial vazifasi misollar asosida ochib beriladi. Shuningdek, kishilik olmoshlarining kelishik shakllari va uslubiy qo‘llanish imkoniyatlari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar. Kishilik olmoshlari, birinchi shaxs, ikkinchi shaxs, uchinchi shaxs, shaxs kategoriyasi, semantika, grammatik ma‘no, nutqiy funksiya.

KIRISH

Til birliklari tizimida kishilik olmoshlari shaxsni ifodalovchi muhim grammatik vositalardan biri hisoblanadi. Ular nutqda ishtirok etuvchi shaxslarning o‘zaro munosabatini, muloqotdagi rollarini hamda kommunikativ vaziyatni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilida kishilik olmoshlari shaxs va son kategoriyalariga ko‘ra farqlanib, birinchi, ikkinchi va uchinchi shaxs ma‘nolarini ifodalaydi. Ushbu olmoshlar nutq subyekti, adresat va uchinchi shaxsga oid referentlarni ko‘rsatish orqali nutqning mantiqiy izchilligini ta‘minlaydi. Kishilik olmoshlarining ma‘noviy xususiyatlarini shaxslar kesimida tahlil qilish ularning lingvistik mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ayniqsa, birinchi shaxs kishilik olmoshlarining subyektivlik, ikkinchi shaxs kishilik olmoshlarining murojaat va pragmatiklik, uchinchi shaxs kishilik olmoshlarining esa obyektiv va referensial ma‘nolari alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Shu bois mazkur maqolada kishilik olmoshlarining shaxsiy-ma‘noviy xususiyatlari tadqiq etiladi.

METODOLOGIYA

O‘zbek tilshunosligida kishilik olmoshlari nutq protsessida uch xil shaxsni – birinchi, ikkinchi va uchinchi shaxslarni ifodalovchi muhim grammatik birliklar sifatida e‘tirof etiladi. Kishilik olmoshlari kommunikativ jarayonda so‘zlovchi, tinglovchi hamda nutq protsessida bevosita ishtirok etmayotgan shaxs yoki

predmetlarni ko'rsatish orqali nutqning aniqligi va izchilligini ta'minlaydi.

Birinchi shaxs kishilik olmoshi men so'zlovchini, ya'ni nutq subyekting o'zini bildiradi. Ikkinchi shaxs kishilik olmoshi sen so'zlovchi murojaat qilayotgan shaxs — tinglovchini ifodalaydi. Uchinchi shaxs kishilik olmoshi u esa nutq protsessida bevosita ishtirok etmayotgan, ammo so'zlovchi yoki tinglovchi tomonidan eslatib o'tilayotgan shaxs yoki ko'rsatilayotgan predmetni anglatadi. Ushbu olmoshlar birlik ma'nosini bildiruvchi kishilik olmoshlari hisoblanadi. Masalan: "Lekin men qayrag'och-u jiydalarni bunaqa markaziy maydonga munosib ko'rmayman" (P.Q., "Olmos kamar"); "Sen baribir ularni pullaysan, yaxshisi menga pullab qo'ya qol" (Ch.A., "Qiyomat"); "U kirib kelib o'tirdi-yu, gap-so'zsiz shoshilgancha xaltasidan bir necha chaqmoq qandni alyumin krujkaga solib..." (Sh., "Kafansiz ko'milganlar").

Kishilik olmoshlarining ko'plik shakllari ham o'ziga xos semantik xususiyatlarga ega. Jumladan, biz kishilik olmoshi faqat bir necha so'zlovchini emas, balki so'zlovchi bilan birga boshqa shaxslarni ham qamrab olgan shaxslar to'ldasini ifodalaydi. Shu bois biz va siz kishilik olmoshlari tarkibida birinchi va ikkinchi shaxs ishtirok etgan jamlanma ma'no mavjud bo'ladi. Masalan: "Siz borsiz ona, siz borsiz, menga shuning o'zi yetarli..." (A.L.Q., "So'nggi to'fon"); "Biz ularni ham sud qilamiz" (Ch.A., "Qiyomat").

Uchinchi shaxs ko'plikdagi ular kishilik olmoshi esa nutq protsessida ishtirok etmayotgan birdan ortiq shaxs yoki predmetlarni ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu olmosh ko'pincha umumlashiruvchi yoki masofaviy ma'no ifodalaydi. Masalan: "...allaqayoqdagi mijg'ov-u mahmadonalar — ular boshqa undaylarga quloq solish kerak emas" (F.D., "Kambag'allar").

Kishilik olmoshlarining qo'llanishida ayrim muhim nutqiy xususiyatlar mavjud. Xususan, kishilik olmoshlari shaxslarni ifodalash jarayonida o'z asosiy ma'nosidan ko'chgan holda qo'llanishi mumkin. Bunday ko'chish hodisasi, asosan, uch xil shaklda namoyon bo'ladi.

Birinchi, shaxsning ko'chishi kuzatiladi. Bu holat ko'proq badiiy asarlarda, ritorik so'roq gaplarda yoki monologik nutqda uchraydi. Masalan, birinchi shaxs ko'plikdagi biz kishilik olmoshi ikkinchi shaxs ko'plikdagi siz olmoshi o'rnida qo'llanib, so'zlovchining o'zi ham harakatning bajarilishida qisman ishtirok etayotganini anglatadi: "Qani endi biz ishga tushaylik". Bunday qo'llanishda boshqa shaxslarni muayyan ishga jalb qilish, tashviq etish ma'nosi seziladi.

Ikkinchidan, ko'plik ma'nosini bildiruvchi olmoshlar birlik o'rnida qo'llanadi. Masalan: "Shuncha ishni kim bajardi?" — "Biz bajardik". Bu yerda biz olmoshi birlikdagi men o'rnida ishlatilib, maqtanish yoki o'zini ko'rsatish ma'nosini ifodalaydi. Ayrim hollarda, xususan, publitsistik nutqda, tantanavor chiqishlarda yoki jonli so'zlashuvda biz olmoshi men o'rnida qo'llanib, kamtarlik ma'nosini ham ifodalashi mumkin: "Biz bu masalani boshqacha usul bilan hal qildik" (ya'ni men hal qildim).

Shuningdek, ikkinchi va uchinchi shaxs ko‘plikdagi siz, ular olmoshlari birlikdagi sen va u o‘rnida kelib, hurmat ma’nosini bildiradi: “Siz meni ko‘rgani keldingizmi?” (Ch.A., “Qiyomat”).

Uchinchidan, shaxs va sonning birgalikda ko‘chishi kuzatiladi. Masalan, birinchi shaxs ko‘plikdagi biz kishilik olmoshi ikkinchi shaxs birlikdagi sen o‘rnida ishlatilishi mumkin. Shuningdek, kishilik olmoshlariga –lar ko‘plik affiksining qo‘shilishi har doim ham real ko‘plikni ifodalamaydi. Men olmoshi bu affiksni qabul qilmaydi, sen olmoshi –lar affiksi bilan qo‘llanganda esa tinglovchi va boshqa shaxslarga nisbatan familiar yoki kamsituvchi munosabatni bildiradi: “Senlarga aytyapman!”. U olmoshiga –lar affiksining qo‘shilishi esa ko‘pincha hurmat ma’nosini yuzaga chiqaradi. Biz va siz olmoshlariga –lar affiksi qo‘shilganda esa ma’no kuchaytirish, shuningdek, shaxslar to‘dasi va umumiylik ma’nosi ifodalanadi: “Bizlarning ko‘zimizni ochibdi...”, “Sizlarning tomlaringizni ko‘rdim”.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilidagi kishilik olmoshlari nutq jarayonida muhim semantik va grammatik funksiyalarni bajaradi. Birinchi shaxs olmoshlari nutq subyekti sifatida subyektiv tajriba va o‘zini ifodalash imkonini beradi, ikkinchi shaxs olmoshlari murojaat va muloqot jarayonida tinglovchi bilan bevosita bog‘lanadi, uchinchi shaxs olmoshlari esa referensial vazifani amalga oshirib, nutq kontekstida boshqa shaxs yoki predmetlarni ko‘rsatadi. Tadqiqot shuningdek, kishilik olmoshlarining kelishik shakllari va uslubiy qo‘llanish imkoniyatlarini ochib beradi, bu ularning badiiy, rasmiy va og‘zaki nutqda funksional boyligini ta’minlaydi. Shu bilan, kishilik olmoshlari o‘zbek tilida grammatik, semantik va pragmatik jihatdan bir-biri bilan uzviy bog‘langan murakkab lingvistik vosita sifatida tilning kommunikativ samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yusupova O. O‘zbek tiliga olmoshlarning funksional-stilistik xususiyatlari. Monografiya. –Samarqand: SamDU,2017. –B 140.
2. Tursunov U, Muxtorov A, Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.–B400.
3. Manba <https://ziyo.net>
4. Manba <https://arxiv.uz>
5. Hozirgi o‘zbek tili (morfemika va morfologiya) fanidan ma’ruzalar matni. – Qarshi,2019.
6. Fayziyeva Sh. A Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani misolida kishilik va ko‘rsatish olmoshlarining morfologik belgi xususiyatlari //International journal, 2024. – B160-165.